

O'ZBEK TILSHUNOSLIGIDA KELISHIKLARNING O'RGANILISHI

Ibragimov Javohir Isamiddin o'g'li

Toshkent amaliy fanlar universiteti 1-kusr magistranti

Tel: +998-88-381-99-98 Email: Jibrahimov@77gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15696531>

Annotatsiya. Ushbu maqolada o'zbek tilshunosligidagi kelishiklar va tilshunos olimlarning bu boradagi gipotezalari va genezisi haqida bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kelishik, gipoteza, "Sarf" va "Nahv", qurol-vosita kelishigi, genezisi.

ИЗУЧЕНИЕ ПАДЕЖЕЙ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКОЗНАНИИ

Аннотация. В данной статье изложены сведения о падежах в узбекском языкознании и гипотезах лингвистов по этому поводу, а также о их генезисе.

Ключевые слова: падеж, гипотеза, «Сарф» и «Нахв», падеж орудия-средства, генезис.

THE STUDY OF CASES IN UZBEK LINGUISTICS

Abstract. This article presents information about the cases in Uzbek linguistics and the hypotheses of linguists in this regard, as well as their genesis.

Keywords: case, hypothesis, "Sarf" and "Nahv", instrumental case, genesis.

"Ma'lumki, milliy til har bir madaniy xalqning tarixi va o'zligini, ruhiy-ma'naviy dunyosini o'zida aks ettiradigan tengsiz boylikdir. Qadimiylar tariximizning eng og'ir va sinovli davrlarida ham bizni yagona xalq sifatida birlashtirib, azaliy qadriyatlarimizni asrlar osha bezavol saqlab kelayotgan ona tilimizni har qancha ardoqlasak, ulug'lasak arziydi"¹ O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev o'zbek tilining tarixiga oddiy ko'z bilan qaramaslikka o'rgatish bilan birqalikda bu merosni abadiy saqlash yo'llarini o'rgatadi.

Ilk yaralishda muloqot shakli bo'lib hosil bo'lgan til bugunga qadar yuksalib, rivojlanib, o'z qonun va qoidalari yaratib insonlar uchun madaniy vositaga aylana oldi. Til qonunlari va tarixi hamda tilning keyingi holati tilshunoslar tomonidan atroficha o'rganilib, o'rgatilib kelinmoqda. Chunki, til birgina muloqot shakli bo'libgina qolmay bir millatning o'tmishi, madaniyati, qolaversa, kelajagining ko'zgusi bo'lib xizmat qiladi. So'zlarning o'zaro bog'lanish tartibi va uning semantikasi kabi jihatlarning bir umumiyligi klassifikatsiyasida birlashishi bir tilning rivojlanishini ta'minlab beradi. Tilning taraqqiy etishi va imkoniyatlarning kengayib borishi so'zlarning va ularni bog'lovchi vositalarning ham o'zgarishiga olib keladi. Xususan, sintaktik munosabat hosil qiluvchi va bir so'zning boshqa bir so'zga bog'lanishida muhim ahamiyat kasb etuvchi kelishiklarning yaratilish tarixi turlichaligi bilan ajralib turadi. Dunyo tillarida va o'zbek tilidagi kelishiklar ham ma'lum til tarixini bosib o'tib qoliplar asosida klassifikatsiyalangan. O'zbek tilshunos olimlarining izlanishlari natijasida kelishiklarning tavsifi turli va holatlarda ilmiy asoslash orqali boyib borgan. Dunyo tillari va o'zbek tilining genezisi ma'lum bir bosqichda lug'at boyligi, morfema tiplari, so'z yasash modellari, grammatik qurilishi, leksik, grammatik birliklarning semantik va funksional xususiyatlari, ular o'rtaсидаги aloqa va vositalarning shakllanishi yuzasidan umumiyligi tafsiflanadi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Davlat dasturi. – URL: <https://president.uz> (murojaat qilingan sana: 2025.06.13).

Kelishiklar, odatda, ot va fe'l o'rtasidagi sintaktik aloqani tashkil qilishda yordam beradi va tildagi predikatning ma'nosini to'liq anglashda muhim ahamiyatga ega. Ularning tarixi va rivojlanishi o'zbek tilining evolyutsiyasi bilan bevosita bog'liq. Til taraqqiyoti tarixidan ayonki, o'zbek tili grammatik tuzilmasining, xususan, kelishiklar kategoriyasining o'rganilishi bir necha bosqichlarda, turli davrlar va ilmiy nuqtayi nazarlar asosida shakllangan. Mazkur jarayonning dastlabki bosqichlarida turli tadqiqotchilar tomonidan olib borilgan izlanishlar kelishiklarning morfologik va sintaktik funksiyalarini aniqlashga yo'naltirilgan. O'zbek tili morfologiyasi va sintaksisi ilk marotaba ilmiy jihatdan mustaqil fan sifatida Abdurauf Fitrat tomonidan o'rganilgan bo'lib, u tomonidan yaratilgan "Sarf" va "Nahv" nomli grammatik qo'llanmalar 1925–1930-yillar oralig'ida olti bor nashr qilingan. Keyingi bosqichlarda esa 1932-yilda M. Shamsiyev hamda Sherbak tomonidan tayyorlangan "O'zbek tili grammatikasi" asari, 1933–1934-yillarda H. Qayumiy va S. Dolimovlar muallifligidagi "Sarf" va "Nahv" nomli darsliklar chop etilgan. Shu bilan birga, 1938-yilda O. Usmon va B. Azizov tomonidan tuzilgan "Morfologiya" va "Sintaksis" nomli asarlar ham ushbu yo'nalishdagi izlanishlarga muhim hissa bo'lib qo'shilgan. O'zbek tilida kelishik kategoriyasining ilk fundamental tahlili A. G'ulomov tomonidan amalga oshirilgan bo'lib, uning "O'zbek tilida kelishiklar" nomli tadqiqoti 1941-yilda nashr etilgan. Ushbu ish o'zbek tilshunosligida kelishiklar masalasining mustaqil tahlil ob'ekti sifatida shakllanishida muhim bosqich hisoblanadi. Bu kabi ishlar "O'zbek tilshunosligida kelishiklarning o'rganilishi" mavzusini asosli tarzda tavsiflab berish imkonini beradi.

O'zbek tilining morfologiyasi va sintaksisini birinchi marta alohida fan sifatida o'rgangan Abdurauf Fitrat o'zining "Tanlangan asarlar" to'plamining 4-jildida kelishiklarni "to'ldirg'ich so'zlar" deb ataydi. Bunga sabab qilib: "Ega bilan kesimdangina anglashilgan o'yning kamchiliklarini to'ldirmoq uchun gapga turli so'zlar qo'shiladur. Bu qo'shilgan so'zlar ham ega bilan kesimga o'xshab gapning bo'laklari bo'ladur", – deya kelishiklarga oid o'z nazariyasini ilgari suradi. "1. tushum, 2. borish, 3. chiqish 4. o'rin, 5. birgalik, 6. chog', 7. nechunlik, 8. nechuklik to'ldirgichlari", – deb kelishiklarni sanab o'tadi. Berilgan misollardan "Ahmad kitobni oldi" gapida tushum to'ldirgichining semantik holatini Fitrat: "Anglashilgan o'yning kamchiligi", – deb ega va kesimning o'zaro aloqasidan qanday semantik ma'no yaratayotganligini tahlil qiladi. Fitratning kelishiklar borasidagi o'z ilmiy nazariyalari hozirgi kun kelishiklaridan farqli bo'lmasa-da, kelishiklarning genezisida ustun bo'lib xizmat qiladi. Ega bilan kesimdan anglashilgan o'yning kamchiliklarini to'ldirish uchun qo'llagan kelishiklarning har biriga alohida to'xtalib o'tadi. Ular orasida "bosh kelishik" o'rin olmagan. Hozirgi kun tilshunoslik nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, bu kelishiklardan ayrimlari o'z holida saqlangan bo'lsa, ayrimlari o'zgarishga uchragan yoki tamoman kelishik deya olinilmagan.

Abdurahmonov N ning 1989-yilda chop etilgan "Qadimgi turkiy til" kitobida u: "Qadimgi turkiy til bo'yicha yozilgan ishlarda kelishiklar soni to'g'risida ham har xillik uchraydi. Jumladan: V.V.Radlov yozma obidalar tilida kelishiklar soni 8 bo'lgan desa, I.A.Batmanov 6 ta bo'lgan, deydi. Ammo V.M Nasilov va A Islyamovlar qadimda kelishiklar 7 ta bo'lgan degan fikrni bayon qiladilar. Biz esa birinchi fikrga to'liq qo'shilgan holda yozma obidalar tilida bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo'nalish kelishigi, o'rin

kelishigi, chiqish kelishigi, qurol-vosita kelishigi va chegara kelishigi bo‘lgan deymiz”². Ko‘rinadiki, kelishiklar borasidagi fikrlar xilma-xillikni tashkil etadi, lekin tilshunos olim N. Abdurahmonov ularning sonini sakkizta ekanligiga urg‘u berib ilmiy asoslashga kirishadi. Ular orasida “qurol-vosita” kelishigi va “chegara” kelishiklarining grammatik va semantik jihatdan o‘zgarishga uchraganligi aytib o‘tadi.

Qosimjon Sodiqovning “Alisher Navoiy asarlarining tili (fonetikasi va morfologiyasi)” kitobida “A.M. Shcherbak -ča, -čä ni «chegara kelishigi»: makon chegarasi va ko‘lam chegarasi (predelniy padej – predelno-prostranstveniy i predelno-obyemniy) qo‘srimchasi deb olgan. Uningcha, eski o‘zbek tilida bu kelishik ikki xil qo‘srimchalar bilan ifodalanadi. Bular: -yača, -gäčä va -ča, -čä qo‘srimchalaridir. ularning kelib chiqishi bir bo‘lib, ma’nosiga ko‘ra ham yaqindir (Sherbak 1962,109–110)³.

Tilshunoslardan tomonidan til grammatikasiga oid keyingi qilingan ishlar orasida o‘zbek tilining kelishiklari yuzasidan eng yirik tadqiqot Ayyub G‘ulomov tomonidan amalga oshirilib, “O‘zbek tilida kelishiklar” nomi ostida 1941-yili nashr etilgan. Unda olimning bu boradagi ilmiy-funksional qarashlari, fikr va mulohazalari bayon etilgan. Ayyub G‘ulomov kelishiklar haqida quyidagi fikrlarni ilgari surgan “Kelishiklarning atalishi ularning asosiy yetakchi funksiyalariga ko‘ra bo‘linadi: har bir kelishikning ma’nosи, grammatik vazifasi juda ko‘pdir, shu vazifalardan biri uning hokim tomonini tashkil etadi, o‘sha kelishik shu hokim tomoniga ko‘ra ataladi. Masalan, “dan” formasini olgan otlar chiqish o‘rni, sabab, vosita, qiymat, chog‘ishtirish, oshirish kabi ko‘p ma’nolarni ifodalay oladi, biroq birinchi ma’no uning asosiy xususiyatidir, shunga ko‘ra u chiqish kelishigi ataladi. Demak, hech bir kelishikning nomi uning butun tomonini o‘zida aks ettira olmaydi. Bosh kelishikning atalishi uning boshqa kelishiklar uchun o‘zaklik vazifasini bajarishiga ko‘radir. U boshqa kelishiklarga qarama-qarshi ravishda, shularga nisbat etilib beriladi”, – deb kelishiklarning yaralish semantikasiga kirish qiladi hamda kelishiklarning qo‘llanilishidagi umumiy xususiyatlari haqida ma’lumotlari bilan boyitadi. “O‘zbek tili kelishiklari shu choqqacha oltita (Bosh kelishik, qaratqich kelishigi, tushum kelishigi, jo‘nalish kelishigi, o‘rin-payt kelishigi, chiqish kelishigi) sanaladi. Biz yangi bir kelishik undash kelishigi (звательный падеж)ni orttirdik. Bu kelishik o‘z xususiyatiga ko‘ra tilimizda bosh kelishikdan ayrimlik holatiga egadir”. Kelishiklar safiga yangi kelishikni olib kirga Ayyub G‘ulomov uning tafsifini ham alohida izohlab ketadi. Masalan, “Undash kelishigi (vocativus) gap bo‘laklaridan ayrim bo‘lgan so‘zlarni ifoda etadi. Uning bu ayrimligi, mustaqilligi ma’no jihatidan, bir qadar sezilgani kabi, tovush va boshqa xususiyatlari jihatidan ham bilinadi: shu bo‘lak 1) ayrim pauza bilan ajralib turadi; 2) o‘zida intonatsion tugallikning elementlarini saqlaydi. Masalan: Salima-yu! Opam chaqiryaptilar. Bundagi “Salima-yu” intonatsiyasi bilan xarakterlanganidek, shu kelishikka xos bo‘lgan belgilarga ham egadir”.

G‘ Abdurahmon va Sh Shukurov larning 1973-yilda nashr ettirilgan “O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi” kitobida “XIII-XIV asrlar davomida O‘rta Osiyoda, ayniqsa, Oltin O‘rda xonligi territoriyasida yaratilgan manbalarning o‘zbek tiliga munosabati masalasi hozirgacha munozarali bo‘lib kelinganligi” aytildi. Lekin bu masala, bizningcha, adabiy til tarixi nuqtai

² Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til.–T.: “O‘qituvchi”. 1989 –B. 157

³ Содиков К. Алишер Навоий асарларининг тили (фонетика ва морфология).– Т.: “TURON IQBOL”. 2025 – B. 375

nazardangina munozarali, deb qaralishi lozimligini, shunga ko‘ra, ushbu manbalarning o‘zbek tiliga qanchalik aloqadorligidan qat’i nazar qo‘llanmada bu manbalardan to‘la foydalanilganligi aytib o‘tilgan. Izohlanayotgan til hodisalari qadimgi turkiy yodgorliklar, ya’ni O‘rxun-Enisey matnlari, qadimgi uyg‘ur tiliga oid manbalar hamda “Devonu lug‘otit turk” va “Qutadg‘u bilig” asarlarining til faktlari bilan qiyoslab borilganligi aytib o‘tiladi. Unda eski o‘zbek tilida oltita kelishik mavjud bo‘lganligini til taraqqiyotining oldingi davrlarida yettinchi kelishik “vosita” kelishigi iste’molda bo‘lganligini qayd qilinadi. Ishning qiymatliligi shundaki unda “vosita” kelishigiga berilgan ma’lumotlarda “vosita kelishigining payt ma’nosida qo‘llanishi qadimgi yodgorliklar tilida ham mavjud bo‘lgan. Demak, vosita kelishigi formasidagi so‘zlarning ravish kategoriyasiga o‘tish protsessi qadimgi yodgorliklarda yozilgan davrlardanoq boshlangan”⁴ ligini ochib berishda hamda ravish kategoriyasiga o‘tish protsessi uchun amaliy manbaa bo‘lib xizmat qilgan

Xulosa

Tilshunoslikda hali yechimini kutayotgan yangi ilmiy gipotezalar va ularning nazariyalarini ishlab chiqishdan oldin ularning o‘rganilish tarixini bilish va uzviylikni saqlash kelajak tilshunoslari oldida turgan asosiy masaladir. Xususan, kelishiklarning o‘rganilish tarixi va tarixiy taraqqiyoti davomida tilimizning ichki qonuniyati o‘zgarib borgan. Bu kabi ishlar esa tilshunos olimlar tomonidan ilgari surilgan va yangi gipotezalarning nazariyalarini turg‘unlikdan qutqarish uchun yo‘l bo‘lib xizmat qiladi. Bunday holatlar faqatgina ochiqlanishini kutayotgan gipotezalarda ham emas, balki yangi gipotezalarning ham ular qatoriga kirib qolishi va amaliy ahamiyatini ochib berishdagi kechikishlarning ko‘payishini oldini oladi.

Bu kabi ishlar, kelishiklarning o‘rganilish tarixi, uzoq vaqtdan beri davom etib kelinayotganligi bilan birgalikda gipotezalarning xilma xillagini ochib berishda amaliy ahamiyat kasb etib yangi kelishlarga oid gipotezalarning yaralishi uchun asos bo‘lib xizmat qiladi

REFERENCES

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti. Davlat dasturi. – URL: <https://president.uz> (murojaat qilingan sana: 2025.06.13).
2. Abdurahmonov N. Qadimgi turkiy til.–T.: “O‘qituvchi”. 1989 –B. 157
3. Содиков К. Алишер Навоий асарларининг тили (фонетика ва морфология).– Т.: “TURON IQBOL”. 2025 – B. 375
4. Abdurahmonov G‘ va Shukurov.Sh O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.–T. : “O‘qituvchi”, 1973 – 318 b

⁴ Abdurahmonov G‘ va Shukurov.Sh O‘zbek tilining tarixiy grammatikasi.–T. : “O‘qituvchi”, 1973 – 318 b